

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI VA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING SAMARALI USULLARI

Axmedova Xurshidaxon Mamurjonovna

Farg'ona viloyati Qo'sh tepa tumani 43-umumiy

o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichida bilim olishda qiyinchilikka duch kelayotgan, ya'ni bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim yondashuvlari va pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha tajribalar yoritilgan. Tadqiqotda bunday o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ularni tengdoshlari bilan tenglashtirish imkonini beruvchi ta'lim strategiyalarining afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida dars jarayonini tashkil etish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirisha olish va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar rivojlanishini ta'minlash yo'llari ko'rib chiqilgan. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar hamda pedagogik innovatsiyalarni izlayotgan amaliyotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi, o'quv faolligi, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim texnologiyasi, kompetensiyaviy yondashuv.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tamoyillari va tarkibiy unsurlari uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan bo'lib, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ta'limning maqsadi, mazmuni, shakli, uslublari va vositalari pedagogik jarayonning eng muhim an'anaviy kategoriyalari hisoblanadi. Ushbu kategoriyalar ta'lim jarayonini chuqur tahlil qilish, uni mazmungan takomillashtirish hamda samarali tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur pedagogik elementlar har bir fan, ixtisoslik yoki mutaxassislikka mos holda shakllanib, o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda pedagogning kasbiy mahoratini namoyon etuvchi asosiy ko'rsatkichlar

sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, pedagogik kategoriyalar maqsadga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyatning nazariy qonuniyatlari va amaliy mezonlarini tizimlashtiruvchi omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi ta'lim konsepsiyasida o'qituvchi faqatgina bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarni faol fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy hayotga tayyorlashda yo'l boshchi – ya'ni “rejissyor” rolini bajarishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy o'qituvchidan yangicha metodlar va innovatsion pedagogik yondashuvlarni chuqur egallagan bo'lishni talab etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'limning ahamiyati haqida gapirar ekan, “Mustaqil fikrlay oladigan, tafakkur yuritib, to'g'ri va oqilona qarorlar qabul qila oladigan, yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan shaxslarni voyaga yetkazishimiz lozim”, deya ta'kidlaydi. Bu fikr zamonaviy ta'limning asosiy maqsad va vazifalarini aniq ifodalaydi. Darhaqiqat, yosh avlodni zamonaviy fan-texnika yutuqlari, innovatsion texnologiyalar va ilg'or ilmiy g'oyalar bilan tanishtirmasdan turib, ularning yetuk mutaxassislar bo'lib shakllanishiga zamin yaratib bo'lmaydi. Shu boisdan, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarga to'g'ri, tizimli va maqsadga muvofiq bilim berish muhim metodik va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchisidan yuqori pedagogik salohiyat, yangilikka ochiqlik va doimiy metodik izlanishni talab etadi. Kuzatuvlar va psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim bosqichiga qadam qo'ygan bola uchun o'yin faoliyati yetakchi o'rinini yo'qotib, uning o'rnini o'qish faoliyati egallaydi. Endilikda o'qish bolaga nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki ijtimoiy burch sifatida taqdim etiladi. Bu bosqichda o'quvchi muayyan qoidalarga rioya qilish, mas'uliyatli bo'lish va intizomli harakat qilishni o'rganadi. Xususan, darslik va o'quv qurollarini tartibda saqlash, maktabga belgilangan vaqtda yetib borish, uyga vazifalarni o'z vaqtida bajarish singari ko'nikmalar shakllanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalarda aqliy faoliyat bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. O'quvchilarda mustahkam bilimlar tizimi shakllana boshlaydi, tafakkur, xotira, sezgi va iroda kabi psixik jarayonlar takomillashadi. Shu bilan birga, bu davrda o'quvchining diqqat markazi hali to'liq barqaror bo'lmaydi. Ayniqsa, 7–8 yosh

oralig'idagi bolalarning tafakkuri hali konkret xarakterga ega bo'lib, ular ko'proq amaliy, idrok qilgan yoki tasavvur etgan narsalarga asoslangan fikrlashga moyil bo'ladilar. Ilmiy izlanishlar ko'rsatadiki, bu yoshdagi bolalar dars jarayonida materiallarni ko'proq ixtiyoriy tarzda eslab qolishga harakat qiladilar. Bu esa o'z navbatida xotira mexanizmining faol rivojlanishiga zamin yaratadi. Xotira, diqqat, tafakkur va nutq faoliyatining uyg'un rivojlanishi o'quvchining umumiy aqliy salohiyatini oshiradi. Uchinchi va to'rtinchi sinflarda o'quvchilar allaqachon ba'zi ilmiy tushunchalarni egallay boshlaydilar, mantiqiy fikrlashning dastlabki shakllari paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilarning hissiy kechinmalari, o'z-o'ziga baho berish va darslarga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'lum fanlarga nisbatan qiziqish bildirib boshlaydilar. Darsda erishilgan yutuq, yuqori baho yoki ijobiy munosabat o'quvchida ruhiy tetiklik, ishonch, quvonch, faxr kabi hissiyotlarni uyg'otadi. Shu bilan birga, ayrim o'quvchilar orasida o'zlashtirishi sust bo'lgan, ayrim fanlardan orqada qolayotgan holatlar ham uchray turadi. Bunday o'quvchilar bilan alohida yondashuv asosida ishlash, ularning qiyinchiliklarini aniqlab, amaliy echimlar ishlab chiqish boshlang'ich sinf o'qituvchisining muhim vazifasidir. Shunday ekan, zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi nafaqat o'z fanining puxta bilimdoni, balki nozik pedagog, psixolog, o'z kasbining fidoiy mutaxassisi bo'lishi zarur. U har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan samarali pedagogik strategiyalarni qo'llay olishi kerak. Bunday yondashuv, o'z navbatida, o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatga foydali bo'lib yetishishida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda samarali metodik yondashuvlar

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning psixik holatini hisobga olgan holda ularga bilim berish, zo'riqish va psixologik bosimdan asrash muhim masala sanaladi. Xususan, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'yin faoliyatidan foydalanish orqali bilimlarni mustahkamlash, ularni faol dars jarayoniga jalb etish pedagogik yondashuvning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Bu kabi o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi tomonidan qiziqarli, tafakkurni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar

qo'llanilishi lozim. Masalan, "G'oyib bo'lganini top" o'yini orqali o'quvchilarning kuzatuvchanligi, xotirasi va e'tibori rivojlanadi. O'yin davomida doskaga turli geometrik shakllar joylashtiriladi, bolalar ularni kuzatadi. "Tun" signali berilganda ko'zlarini yumishadi, "Kun" signalidan so'ng esa yo'qolgan shakllarni aniqlashga harakat qilishadi. Bunday o'yinlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini faollashtirishda samarali bo'ladi. Shu bilan birga, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni aniqlash va ular bilan individual ishlash pedagogdan nafaqat sabr-toqat, balki ilmiy yondashuv va aniq rejalashtirilgan metodik ishni talab etadi. Buning uchun quyidagi amaliy choralarni ko'rish tavsiya etiladi:

- **Yakkama-yakka suhbatlar o'tkazish** orqali o'quvchining psixologik holatini va qiziqishlarini o'rganish;
- **Individual yondashuv jurnalini yuritish**, unda o'quvchining fanlar kesimidagi rivojlanishi monitoring qilib boriladi;
- **Maxsus mashg'ulotlar daftari** orqali o'quvchining kamchiliklariga mos qo'shimcha topshiriqlarni berish;
- Har bir ijobiy o'zgarishni **rag'batlantirish**, motivatsiyani oshiruvchi baholash tizimidan foydalanish.

O'quvchining nutqiy va tafakkur salohiyatini oshirishda **ertak asosida tahliliy suhbatlar** tashkil etish ham o'z samarasini beradi. Masalan, "Uch baliq" ertagi asosida o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, nutq orqali fikr ifoda qilishga, ijobiy xulqiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Ertakda voqeani to'xtatib, "Sizningcha baliq nima dedi?", "Qanday yo'l tutgan bo'lardi?", kabi savollar berilishi o'quvchini mulohaza yuritishga undaydi. Har bir javobni qadrlash, "Bu sening fikring, rahmat!", "Yaxshi mulohaza bildirding" kabi ijobiy baholovlar orqali o'quvchi ichki ishonchini mustahkamlaydi.

Zamonaviy ta'limning asosiy talabi – **har bir bola shaxsini rivojlantirish**, uning individual qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishdir. O'qituvchi esa bu jarayonda bosh ijodkor, rejissyor sifatida har bir bolaning imkoniyatlarini ko'ra oladigan, ularni to'g'ri yo'naltira oladigan mutaxassis bo'lishi shart. Shuningdek, fanlar bo'yicha **qo'shimcha darslar**

tashkil qilish, mashg'ulotlardan keyingi vaqtni samarali tashkil etish, bolaning qiziqishlarini hisobga olib tayyorlangan topshiriqlar orqali individual yondashuvni kuchaytirish bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni dars jarayoniga faolroq jalb qilish imkonini yaratadi.

Bugungi globallashuv va yangilanishlar davrida pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki bolaning shaxsiy yuksalishiga xizmat qiluvchi murabbiy, motivator, psixolog va ijtimoiy hamkor sifatida harakat qilishi lozim. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi – bu nafaqat asosiy bilimlar, balki shaxs sifatida shakllanish poydevori qo'yiladigan davrdir. Shu sababli bu bosqichdagi har bir yondashuv, har bir so'z, har bir uslub bola kelajagiga xizmat qiladi.

Fanga oid qo'shimcha darslar tashkil etishning metodik asoslari va ularning bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashdagi ahamiyati

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni ularning psixologik, ijtimoiy va aqliy rivojlanish darajalariga mos ravishda tashkil etilishi muhimdir. Ayniqsa, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan samarali ishlash, ularni umumiy ta'lim jarayoniga faol jalb etish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash o'qituvchidan puxta metodik tayyorgarlik va tizimli yondashuvni talab etadi. Fanga oid qo'shimcha darslar o'quvchilarning individual xususiyatlari va real o'quv ehtiyojlarini hisobga olgan holda quyidagi to'rt yo'nalishda tashkil etilishi mumkin:

1. O'quvchining qiziqishiga qarab qo'shimcha darslar

Bu turdagi mashg'ulotlar asosan fan to'garaklari shaklida tashkil etilib, o'quvchining fanga bo'lgan individual qiziqishini qo'llab-quvvatlash, uning bilishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday darslar orqali o'quvchi o'zini erkin ifoda etish, mustaqil izlanish va mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantiradi.

2. Bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida tashkil etiladigan darslar

Bu darslar test natijalari, kundalik monitoring va formatif baholash asosida aniqlangan bilim bo'shliqlarini bartaraf etishga qaratiladi. Ular o'quvchilarning mavzu yuzasidan yetarli bilimga ega emasligi yoki tushunmagan jihatlarini aniqlash va shu asosda

maqsadli ishlashga xizmat qiladi. Ushbu mashg'ulotlar kichik guruhlar yoki individual tarzda olib boriladi.

3. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash uchun qo'shimcha darslar

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashdan avval ularning o'quv faoliyatidagi past ko'rsatkichlarining sabablarini aniqlash muhimdir. Bunday sabablarga quyidagilar kiradi:

- ✓ Darslarda qatnashmaslik yoki doimiy sababsiz dars qoldirish;
- ✓ Bilimlarni qabul qilishga nisbatan sust munosabat;
- ✓ O'yinbozlik va e'tiborning tez chalg'ishi;
- ✓ Oilaviy muammolar, emotsional bosim.

Ushbu toifadagi o'quvchilar bilan individual yondashuv asosida haftada kamida 2 marotaba, 1 soatdan maxsus mashg'ulotlar tashkil etilishi lozim. Darslar qiziqarli, ko'rgazmali, interaktiv usullar asosida olib borilishi, bolada o'qishga nisbatan ishonch uyg'otishi kerak.

4. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash uchun qo'shimcha darslar

Iqtidorli o'quvchilar bilan olib boriladigan qo'shimcha darslar oldindan ishlab chiqilgan aniq reja va metodik dastur asosida tashkil qilinadi. Ular:

- Ijodiy topshiriqlar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- Fan olimpiadalari va tanlovlarga tayyorlash;
- Ijodiy ishlar ko'rgazmasini tashkil qilish;
- Rivojlanish monitoringi asosida yutuqlarini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Bo'sh o'zlashtirishni keltirib chiqaruvchi omillar va ularga qarshi chora-tadbirlar

Bo'sh o'zlashtirishni aniqlash va uning oldini olish uchun quyidagi omillarni tahlil qilish zarur:

- ✎ O'quvchining psixik jarayonlarining (diqqat, xotira, tafakkur) yetarlicha rivojlanmaganligi;

- ✍ O'quvga psixologik jihatdan tayyor bo'lmalik;
- ✍ Ota-onaning yetarli darajada nazorat qilmasligi, uy sharoitining noto'g'ri tashkil etilishi;
- ✍ Motivatsiyaning pastligi yoki butunlay yo'qligi;
- ✍ Shaxslararo munosabatlarda muammolar mavjudligi.

Bu omillarni bartaraf etish uchun ta'lim-tarbiya jarayoni quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilishi lozim:

- ☑ O'quvchining intellektual, hissiy, irodaviy sohalarini kompleks rivojlantirish;
- ☑ Jamoaga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- ☑ O'quvchilarning kichik yutuqlarini e'tirof etish, ijtimoiy maqomini mustahkamlash;
- ☑ Ota-ona, psixolog va o'qituvchi hamkorligini ta'minlash.

Xulosa

1. O'quvchining bo'sh o'zlashtiruvchanligi – vaqtinchalik holat bo'lib, to'g'ri pedagogik yondashuv bilan bartaraf etilishi mumkin.
2. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga nisbatan beriladigan baho uning shaxsiy o'sishiga bevosita ta'sir qiladi.
3. O'quvchining har qanday kichik yutug'i e'tirof etilishi, ijobiy motivatsiya vositasi sifatida qo'llanilishi lozim.
4. Ta'lim sifati, ayniqsa boshlang'ich bosqichda, bolaning shaxsiy qobiliyatlariga mos yondashuv bilan bog'liq.
5. Qo'shimcha darslar o'quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”GI Qarori.

3. Musurmonov A. “Ta’lim-tarbiyada xalq og‘zaki ijodidan foydalanish”. T.: O‘qituvchi, 1993.

4. Suvonov O.va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash davr taqozosi». «Xalq ta’limi», 2004 yil, № 5.